



DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING TARKIBIY TAHLILI

Qodirova Ozoda Raxmiddin qizi¹ Sardor Mamatov²

¹DTPI iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi 2-bosqich talabasi
el.pochta: ozodaraxmiddinovna@gmail.com
tel.nomer: +998919677220; +998888078838

²DTPI ilmiy xodimi taqrizi asosida.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6636086>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

davlat budjeti, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, budjet tizimi, budjet tasnifi, xarajatlar tarkibi.

ABSTRACT

O'zbekiston davlat budjeti xarajatlarining tarkibi va yillar mobaynida har bir soha uchun qilingan sarfi miqdori tahlil qilingan holda uning asosiy qismi ijtimoiy sohaga ajratilishi ma'lum bo'ldi. Bu xarajatlarni takomillashtirish va yanada tarkibni yaxshilash uchun ushbu maqolada ilmiy izlanishlar olib borilgan holda takliflar berilgan.

Budjet xarajatlari tranzit xarakterga ega. Budjetda faqat budjet xarajatlarining miqdori xarajatlar moddalari bo'yicha belgilanadi, bevosita xarajatlarni esa budjetdan mablag' oluvchilar amalga oshiradilar. Bundan tashqari, budjet dotatsiyalari, subvensiyalari va budjet ssudalari vositasida budjet tizimi darajalari bo'yicha budjet mablag'larini qayta taqsimlash budjet orqali amalga oshadi. Budjet xarajatlari asosan qaytarib olinmaydigan xarakterga ega. Faqat budjet kreditlari va budjet ssudalari qaytariladigan asosda berilishi mumkin. Xarajatlar tuzilmasi budjet yili uchun tasdiqlanadigan budjetda ko'rsatiladi va budjet daromadlari kabi iqtisodiy vaziyatga, ijtimoiy ustuvorliklarga bog'liq bo'ladi.

O'z iqtisodiy mazmuniga qarab budjet xarajatlari joriy va kapital xarajatlarga bo'linadi. Budjetning joriy xarajatlari – budjet xarajatlarining bir qismi bo'lib,

davlat hokimiyati organlarining, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining, budjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga, davlat tomonidan quyi pog'onadagi budjetlar va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga mablag' ajratish, dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar shaklida yordam ko'rsatish uchun ajratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda induksion yo'nalish tanlangan bo'lib, ilmiy bilishning dialektik, tahlil, mantiqiylik kabi usullar orqali muammoni ochib berishga harakat qilingan. Tadqiqot mavzusi davlat budjeti tarkibining umumiy holatlarini kuzatish orqali qo'yilgan. Tadqiqot uchun zarur axborotlar asosan ilmiy adabiyotlardan olingan.

Davlat budjeti xarajatlari mohiyati. Budjetning kapital xarajatlari – budjet xarajatlarining innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlaydigan qismi hisoblanadi. Unga tasdiqlangan investitsiya



dasturiga muvofiq ishlab turgan yoki yangidan tashkil qilinadigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga investitsiyalar uchun mo'ljallangan xarajatlar kiradi. Bu xarajatlar investitsiya maqsadlari uchun budjet kreditlari tarzida beriladigan mablag'lar, kapital ta'mirlash xarajatlari va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan iborat.

Davlat budjeti xarajatlari o'zining funksional tayinlanishiga ko'ra quyidagi guruhlariga birlashtirilgan

1. Ijtimoiy soha (ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, omma viy axborot vositalari, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot muassasalari va tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash) va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlari) xarajatlari;
2. Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
3. Iqtisodiyot xarajatlari;
4. Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
5. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;
6. Sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;
7. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;
8. Zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari;
9. Boshqa xarajatlar.

Sanab o'tilgan har bir guruh xarajatlar, o'z navbatida, mahkamaviy va maqsadli belgisiga ko'ra guruhlanadi. Mahkamaviy belgisiga ko'ra budjet mablag'larini oluvchi vazirlik, davlat qo'mitasi yoki boshqa

davlat boshqaruv organining xarajatlariga bo'linadi. Bu belgiga ko'ra xarajatlarni tahlil qilishda budjet xarajatlarining qaysi tarmoq va sohalarga yo'naltirilayotgani haqida xulosa qilish mumkin bo'ladi. Masalan, davlat budjetidan funksional tasnifga ko'ra ta'lim sohasiga ajratilgan pul mablag'lari.

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi tuzilishining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- budjet tizimining yagonaligi;
- budjet tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- budjet tizimi budjetlarining balansliligi va o'zaro bog'liqligi;
- budjet tizimi budjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish;
- budjet tizimi budjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;
- budjet tizimi budjetlarining mustaqilligi;

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, V-bo'lim, 139-bob, 69-modda.

- budjet tizimi budjetlari mablag'laridan foydalanishning natijadorligi;
- kassaning yagonaligi;
- budjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi;
- ochiqlik.

Barcha darajadagi budjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O'zbekiston Respublika sining milliy valutasini – so'mda amalga oshiriladi.

Budjet tizimiga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi olib boradi. O'zbekiston Respublikasida budjet



tizimini Moliya vazirligi boshqaradi. Moliya vazirligi yagona budjet siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi, davlat budjet resurslarini rejalashtirishni va moliya organlariga uslubiy rahbarlikni olib boradi.

Barcha darajadagi budjetlar yagona budjet tasnifi – daromadlar va xarajatlarni tasnif obyektlariga ko'ra guruhlovchi xos raqam (kod) lar berish bilan guruhlash ko'rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi.

Demak, budjet tasnifi – O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarining guruhlanishidan iborat. Budjet tasnifi davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida budjet ma'lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va budjet ma'lumotlarini xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslash imkonini beradi.

Budjet tasnifi:

- Davlat budjeti daromadlari tasnifini;
- Davlat budjeti xarajatlari tasnifini;
- Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifini o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti daromadlari tasnifi barcha darajadagi budjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg'armalari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari daromadlarining guruhlanishidan iborat barcha budjet darajalari xarajatlari guruhlanishini o'zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funktsiyalarini bajarishga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishga budjet

mablag'larining yo'naltirilishini aks ettiradi.

Xarajatlar tasnifi quyidagilardan iborat:

- mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifi;
- xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi;
- tashkiliy tasnif;
- xarajatlarning iqtisodiy tasnifi;
- hududiy tasnif.

Mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifi amalga oshirilayotgan xarajatlarning qaysi mablag'lar manbasi va budjetlar darajasiga (respublika budjeti, mahalliy budjetlar darajasiga yoki davlat maqsadli jamg'armasi turiga) mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi barcha budjet darajalari xarajatlari guruhlanishini o'zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari asosiy funktsiyalarini bajarishga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishga budjet va budjetdan tashqari mablag'larning yo'nalishini aks ettiradi.

Davlat budjeti xarajatlarning tashkiliy tasnifi xarajatlarni xo'jalik yurituvchi subyektlar turlari va budjetdan ajratiladigan mablag'larning ularni bevosita oluvchilar o'rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi tadbirlar bo'yicha guruhlashdan, y'ni budjet tizimi budjetlarining mablag'larini taqsimlovchilar bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi.

Davlat budjeti xarajatlarning iqtisodiy tasnifi barcha darajadagi budjetlar xarajatlarni xo'jalik belgilariga, ishlab chiqarish elementlariga ko'ra farqlashni nazarda tutadi, davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib, budjet xarajatlari yo'nalishlarini belgilab beradi.



Hududiy tasnif budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat.

Davlat byudjetining xarajatlari umumiy moliyaviy kategoriya bo'lgan byudjetning ko'rinishlaridan biri bo'lib, unga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlarga egadir. Davlat byudjetining xarajatlari xarajatlarning konkret turlari orqali namoyon bo'ladi. Byudjet xarajatlari konkret turlarining xilma-xilligi esa, o'z navbatida, quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi: davlatning iqtisodiy tabiati va funktsiyalari; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi; byudjetning milliy iqtisodiyot bilan bog'langanligi; iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganlik darajasi; byudjet mablag'larining namoyon bo'lish shakllari va h.k.

Davlat byudjetining barcha xarajatlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- milliy iqtisodiyotga xarajatlar;
- mudofaa xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari o'z tarkibiga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funktsiyasini o'zida aks ettirib, bu guruhdagi byudjetning xarajatlari xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va

madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo'lgan talabini qondirishga, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishga keng yo'l ochib beradi.

Milliy iqtisodiyotga byudjetdan xarajat qilinishi davlatning xo'jalik yurituvchi asosiy sub'ektlardan biri ekanligidan darak beradi. Aynan bu xarajatlar keng miqyoslarda yangi sanoat korxonalarini qurish, zamonaviy industriya asosida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirish, transport, aloqa va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini texnika vositalari bilan qayta ta'minlashga imkon yaratadi. Shuning uchun ham davlat byudjetining bu xarajatlari orasida iqtisodiyot va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari alohida o'rin egallaydi. Davlat byudjetining mudofaa xarajatlari ham davlatning funktsiyalaridan kelib chiqadi. Ular har bir davlatning o'z mudofaa qobiliyatini mustahkamlashi zarurligi bilan bog'liqdir. Qurolli kuchlarning barcha turlari byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Davlat byudjeti xarajatlari hajmining yildan-yilga ortib borishi ularni milliy xo'jalikning samaradorligi nuqtai nazaridan baholashni dolzarb muammoga aylantirib qo'yadi. Bunda milliy xo'jalikning yakuniy natijasini baholab, faqat unga tegishli bo'lgan daromadlarning qo'shimcha ravishda o'sganligiga e'tibor berish bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas. Bunda, bir vaqtning o'zida, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot darajasi, ijtimoiy muammolarning qay darajada hal etilganligi ham nazardan chetda qolmasligi kerak.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi davlatning tabiatiga, u



tomonidan bajarilayotgan funktsiyalarga, milliy xo'jalikning ehtiyojlariga bog'liq hamda byudjet mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste'molning ba'zi bir omillariga davlatning ta'sirchanligini ta'minlash kabilar bilan belgilanadi. Davlat byudjetining xarajatlaridan foydalanish byudjetdan moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, byudjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun sub'ektlarga byudjetdan mablag'larni taqdim eish tizimi tushuniladi.

O'zbekiston Moliya vazirligi 2013 yilgi Davlat byudjetining ijrosi bo'yicha e'lon qilgan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2013 yilda O'zbekiston byudjetining xarajatlar qismi 25 trillion 833,7 milliard so'mga teng bo'lgan.

2013 yili O'zbekistonda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari 15 trillion 167,8 milliard so'mni tashkil qilgan. Shundan 8,8 trillion so'm maorif sohasiga, 3,8 trillion so'm sog'liqni saqlashga, 287,4 milliard so'm madaniyat va sportga, 164,7 milliard so'm fanga, 106,4 milliard so'm ijtimoiy ta'minotga, 1,6 trillion so'm bolali oilalarni hisobga olgan holda ijtimoiy nafaqalarga, 374,7 milliard so'm esa qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturini birgalikda moliyalashtirish kredit liniyasi xarajatlari uchun sarflangan.

2013 yilda O'zbekiston davlat byudjeti hisobidan NNT, NST va fuqarolik

jamiyatlari institutlarini rivojlantirish uchun mablag' va grantlar 7 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa, iqtisodiyot xarajatlari 2,75 trillion so'mga teng bo'ldi.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari 1,439 trillion so'mni, davlat hokimiyati, boshqaruv organlari va sud organlari, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining saqlash xarajatlari 1,15 trillion so'mni tashkil etdi. 5,3 trillion so'm davlat byudjetining boshqa xarajatlari uchun sarf etilgan.

2013 yilda O'zbekiston davlat byudjeti daromadlari 26,2 trillion so'mni tashkil etgan edi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning 2013 yilgi davlat byudjeti 389,5 milliard so'm profitsit bilan bajarilgan.

Xulosa va takliflar. Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarining izchil ravishda ortib borayotganligi davlatimiz tomonidan kuchli ijtimoiy siyosatning moliyaviy asoslarini shakllantirilayotganligining yorqin dalili hisoblanadi. Avvalambor budjet daromadlarini to'g'ri shakllantirish uchun daromad yig'implari tartibli va izchil yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim. Budjetdan to'laqonli va samarali foydalana olish uchun esa sohalar chuqur analiz qilingan holda aniqroq ko'rsatkichlar bilan budjet daromadlari sarf qilinishi lozim.

References:

1. I.O.Yakubov, H.A.Hakimov Makroiqtisodiyot-2.O'quv qo'llanma.2019
2. B.T.Salimov, H.A.Hakimov. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot, Darslik 2019
3. Z.A.Djumayev. Makroiqtisodiyot, Darslik. 2019
4. Jeyms D.Guortni, Richard L.Stroup, Duayt R.Li, Tauni H.Ferrarini, Jozef P.Kalhum, Rendall K.Fayler. Mantiqiy iqtisodiyot